

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MILLATLARARO TOTUVLIK VA BAG‘RIKENGLIK SIYOSATI TARIXI: KOREYS MILLIY-MADANIY MARKAZLARI MISOLIDA (1991–2024-YY.)

Nurmetova Fazilat Ilhomovna

O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchi,

O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy axborot kommunikatsiyalar universiteti

Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti Siyosiy fanlar kafedrası katta o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22785037>

Qabul qilindi: 8-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 14-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 15-sentabr 2026-yil

Annotatsiya.

Maqolada O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida shakllantirgan millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik siyosatining tarixiy taraqqiyoti, uning huquqiy-institutsional asoslari hamda amaliy natijalari milliy madaniy markazlar tizimi, xususan koreys diasporasi misolida tahlil qilinadi. Sovet davridagi majburiy ko‘chirish siyosati, mustaqillik yillarida milliy siyosatning tubdan o‘zgarishi va bu boradagi davlat dasturlari xronologik tartibda yoritilgan.

Kalit so‘zlar:

O‘zbekiston tarixi, millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik siyosati, milliy madaniy markazlar, koreys diasporasi, Koryo saram, deportatsiya, mustaqillik davri.

Kirish

O‘zbekiston tarixining mustaqillik davri tadqiqotchilari uchun dolzarb yo‘nalishlardan biri — respublika hududida yashovchi 130 dan ortiq millat va elat vakillari o‘rtasidagi totuvlik va bag‘rikenglikni ta’minlashga qaratilgan davlat siyosatining shakllanish tarixidir. O‘zbekiston sovet davrida amalga oshirilgan majburiy ko‘chirish siyosati natijasida ko‘p millatli mamlakatga aylandi, biroq mustaqillik yillarida bu tarixiy meros tubdan yangi — hurmat, tenghuquqlilik va o‘zaro yordamga asoslangan — milliy siyosat negiziga aylantirildi.

Mazkur maqolaning maqsadi — O‘zbekiston Respublikasining millatlararo totuvlik siyosati tarixini uning huquqiy-institutsional rivojlanish bosqichlari asosida tahlil qilish hamda bu siyosatning amaliy natijalarini respublikadagi eng yirik xorijiy diasporalardan biri — koreys diasporasi va uning milliy-madaniy markazlari misolida ko‘rsatib berishdan iborat.

Majburiy ko‘chirish siyosatining tarixiy merosi

O‘zbekistonning ko‘p millatli tarkibi ko‘p jihatdan sovet davri milliy siyosatining natijasidir. 1937-yil 16-sentabrdagi “Koreys xo‘jaliklarini joylashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Xalq Komissarlari Soveti farmoyishi asosida Uzoq Sharqdan taxminan 73 ming koreys — “koryo saram” — respublika hududiga majburiy ko‘chirib keltirildi¹. Ular asosan Toshkent viloyati, Farg‘ona vodiysi va Samarqand atroflarida joylashtirilib, qishloq xo‘jaligida faoliyat yuritgan. 1926-yilda respublikada atigi 30 nafar koreys millati vakili qayd etilgan bo‘lsa, 1989-yilga kelib

¹O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘zMA), M-7-fond, 1-ro‘yxat, 327-yig‘ma jild.

bu ko'rsatkich 183 140 nafarga yetdi² — bu sovet davrida amalga oshirilgan repressiv ko'chirish siyosatining ko'lamini yaqqol ko'rsatadi.

Mustaqillik davrida millatlararo totuvlik siyosatining huquqiy-institutsional asoslari

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, sovet davri milliy siyosatidan farqli o'laroq, respublika hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning o'zaro hurmat, tenghuquqlilik va bag'rikenglik tamoyillariga asoslangan yangi davlat siyosati shakllantirila boshlandi. Bu siyosatning institutsional ifodasi sifatida milliy madaniy markazlar tashkil etilib, ularga davlat tomonidan huquqiy va moliyaviy qo'llab-quvvatlash ko'rsatila boshlandi.

Ushbu yo'nalishdagi siyosat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagi "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5046-son Farmoni bilan yangi bosqichga ko'tarildi³. Ushbu farmon asosida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi faoliyati takomillashtirilib, milliy madaniy markazlarning davlat organlari bilan muvofiqlashtirilgan holda ishlashi uchun huquqiy zamin yaratildi.

Koreys milliy-madaniy markazlari tizimining shakllanishi

Yangi milliy siyosatning amaliy natijasi sifatida 1988-yilda Toshkentda birinchi "Koreys madaniyat markazi" tashkil etilib, unga Toshkent madaniyat instituti rektori V.S.Xan raislik qildi. Mustaqillik yillarida bu tajriba respublika bo'ylab kengaydi: Oqqo'rg'on, Olmaliq, Bekobod va Chirchiq tumanlarida shunga o'xshash markazlar faoliyat yurita boshladi⁴. 1991-yilda esa respublikadagi barcha koreys milliy madaniy markazlarini birlashtirgan "Koreys milliy madaniy markazlar Assotsiatsiyasi" tashkil etilib, davlatning yangi milliy siyosati doirasida institutsional shaklga keldi. Bugungi kunda O'zbekistonda 26 ta koreys milliy madaniy markazi va uning 29 viloyat filialiga ega Assotsiatsiyasi faoliyat yuritmoqda⁵.

Davlat siyosatining diasporaga g'amxo'rlik yo'nalishidagi amaliy ko'rinishi sifatida 2006-yilda imzolangan bitim asosida 2010-yilda birinchi avlod etnik koreyslar uchun "Arirang" qariyalar uyi ochildi⁶; bino O'zbekiston tomonidan bepul ajratilib, rekonstruksiya xorijiy mablag'lar jalb qilindi. Bunday amaliy qadamlar O'zbekistonning milliy ozchiliklarga nisbatan olib borayotgan ijtimoiy siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylandi.

Yubiley sanalar va davlat siyosatining jamoatchilik e'tirofi

O'zbekistonning millatlararo totuvlik siyosati muntazam ravishda yubiley tadbirlari orqali jamoatchilik e'tiroffiga ega bo'lib bormoqda. 2017-yilda koreys diasporasi O'zbekistonda istiqomat qilganligining 80 yilligi keng nishonlanib, Toshkentning "Do'stlik" bog'i hududidagi "Seul bog'i"da "o'zbek xalqiga minnatdorchilik" yodgorlik majmuasining ochilish marosimi bo'lib o'tdi⁷. 2022-yilda esa koreyslarning O'zbekistonga ko'chirilganligining 85 yilligi hamda O'zbekiston – Koreya Respublikasi diplomatik aloqalarining 30 yilligi bir vaqtda nishonlanishi diqqatga sazovordir — bu ikki tarixiy voqeaning bir sanada uyg'unlashuvi davlatning milliy siyosati va tashqi siyosati o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yaqqol namoyon etadi.

O'zbekistonning bag'rikenglik siyosati xorijda ham munosib e'tirofga sazovor bo'lmoqda: 2021-yil dekabr oyida Koreya Respublikasining Seul shahrida buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri

²Назаров Р.Р. Корейская диаспора Узбекистана: история и современность // Известия Восточного института. – 2022. – № 2. – С. 73–84.

³O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagi PF-5046-son "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. – URL: <https://lex.uz/docs/3210345>

⁴O'zbekiston Milliy arxivi (O'zMA), M-7-fond, 1-ro'yxat, 327-yig'ma jild; Дмитриева М.О., Троякова Т.Г. Корейцы Узбекистана в поисках новой идентичности // Известия Восточного института. – 2021. – № 2. – С. 45–63.

⁵Ассоциация Корейских Культурных Центров Республики Узбекистан. – URL: <https://akkc.uz/>

⁶Посольство Республики Корея в Республике Узбекистан. – URL: https://overseas.mofa.go.kr/uz-uz/brd/m_8570/view.do?seq=760948

⁷Церемония открытия мемориального памятника «Благодарность». – URL: https://overseas.mofa.go.kr/uzru/brd/m_8570/view.do?seq=754983&page=7

Alisher Navoiy haykalining o'rnatilishi⁸ O'zbekiston tarixi va madaniy merosining xalqaro miqyosda tan olinishining yorqin dalilidir.

Xulosa va tavsiyalar

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasining millatlararo totuvlik va bag'rikenglik siyosati sovet davri majburiy ko'chirish siyosatining og'ir merosini bosqichma-bosqich, huquqiy va institutsional vositalar orqali ijobiy tomonga o'zgartirishga erishdi. Milliy madaniy markazlar tizimi, ularni davlat darajasida qo'llab-quvvatlash mexanizmlari hamda muntazam yubiley tadbirlari — bularning barchasi O'zbekistonning ko'p millatli jamiyatni boshqarish borasidagi o'ziga xos milliy modelini shakllantirdi⁹.

Mavzuni yanada chuqur tadqiq etish maqsadida quyidagi yo'nalishlar istiqbolli hisoblanadi: respublikadagi boshqa milliy diasporalar (rus, tatar, qozoq, turk-mesxeti va boshqalar) tajribasi bilan qiyosiy tahlil o'tkazish; milliy madaniy markazlar faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy baza evolyutsiyasini alohida tadqiqot predmeti sifatida o'rganish; sovet davri deportatsiya siyosati arxiv hujjatlarini yanada kengroq ilmiy muomalaga kiritish. Bu yo'nalishlar O'zbekiston tarixshunosligida milliy siyosat tarixi bo'yicha bilimlarni boyitishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagi PF-5046-son "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. – URL: <https://lex.uz/docs/3210345>
2. O'zbekiston Milliy arxivi (O'zMA), M-7-fond, 1-ro'xat, 327-yig'ma jild.
3. Назаров Р.Р. Корейская диаспора Узбекистана: история и современность // Известия Восточного института. – 2022. – № 2. – С. 73–84.
4. Дмитриева М.О., Троякова Т.Г. Корейцы Узбекистана в поисках новой идентичности // Известия Восточного института. – 2021. – № 2. – С. 45–63.
5. Ассоциация Корейских Культурных Центров Республики Узбекистан. – URL: <https://akkc.uz/>
6. Посольство Республики Корея в Республике Узбекистан. – URL: https://overseas.mofa.go.kr/uz-uz/brd/m_8570/view.do?seq=760948
7. Церемония открытия мемориального памятника «Благодарность». – URL: https://overseas.mofa.go.kr/uzru/brd/m_8570/view.do?seq=754983&page=7
8. Embassy of the Republic of Uzbekistan in the Republic of Korea. – URL: <https://korea.mfa.uz/page/471>

⁸Embassy of the Republic of Uzbekistan in the Republic of Korea. – URL: <https://korea.mfa.uz/page/471>

⁹Nurmetova F.I. O'zbekiston – Koreya Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy aloqalari tarixi (1992–2024-yy.): tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti, 2026. – B. 51–65.